O'zbekistonning turistik hududlarida avtobus va maxsus transport xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	953
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Budjet tizimiga jismoniy shaxslardan olinadigan soliq tushumlarini prognoz qilishni baholash modellari tahlili	958
Babayev Shavkat Bayramovich	
Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ekonometrik modellashtirish xorij tajribasining ahamiyati.....	964
N.N.Ibragimov	
Hududlar daromad salohiyatini oshirishda soliq siyosatining o'rni.....	968
Qobulov Xotamjon Abdukarimovich	



HUDUDLAR DAROMAD SALOHİYATINI OSHIRISHDA SOLIQ SIYOSATINING O'RNİ

Qobulov Xotamjon Abdukarimovich

iqtisod fanlari nomzodi, professor

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: khqobulov@gmail.com

ORCID: 0000-0002-3113-2079

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlar daromad salohiyatini oshirishda soliq siyosatining o'rnı, uning iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ta'siri va samaradorlik mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda hududlarning iqtisodiy holati, soliq imtiyozlari, investitsion faollik va mahalliy budjet daromadlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, hududlarni toifalarga ajratish orqali tabaqalashtirilgan soliq siyosati qo'llanilganda erishiladigan ijobiy natijalar, biznes faoliyatini kengaytirish omillari hamda ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan soliq tushumlarining ko'payishi o'rtasidagi iqtisodiy mexanizmlar asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari hududlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va daromad bazasini kengaytirishga qaratilgan soliq siyosati takliflarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: hududlar, daromad salohiyati, soliq siyosati, tabaqalashtirilgan soliq yondashuvi, soliq imtiyozlari, investitsion faollik, mahalliy budjet, iqtisodiy o'sish, rag'batlantirish mexanizmlari, hududlarni toifalash.

Abstract: This article examines the role of tax policy in increasing the income potential of regions, its impact on economic development processes, and the mechanisms that enhance policy effectiveness. The study analyzes the interrelation between regional economic conditions, tax incentives, investment activity, and local budget incomes. Particular attention is given to the outcomes achieved through differentiated tax policy based on regional categorization, the factors stimulating business expansion, and the economic mechanisms that connect increased production volumes with higher tax incomes. The findings contribute to the development of policy recommendations aimed at ensuring sustainable economic growth and expanding the income base of regions through effective tax policy measures.

Key words: regions, income potential, tax policy, differentiated tax approach, tax incentives, investment activity, local budget, economic growth, stimulating mechanisms, regional categorization.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль налоговой политики в повышении доходного потенциала регионов, её влияние на процессы экономического развития и механизмы повышения эффективности. В исследовании анализируется взаимосвязь между экономическим состоянием регионов, налоговыми льготами, инвестиционной активностью и доходами местных бюджетов. Особое внимание уделено результатам, достигаемым при применении дифференцированной налоговой политики через категоризацию регионов, факторам расширения предпринимательской деятельности и экономическим механизмам увеличения налоговых поступлений за счёт роста производственных объёмов. Полученные выводы служат основой для разработки предложений, направленных на обеспечение устойчивого экономического роста и расширение доходной базы регионов посредством эффективной налоговой политики.

Ключевые слова: регионы, доходный потенциал, налоговая политика, дифференцированный налоговый подход, налоговые льготы, инвестиционная активность, местный бюджет, экономический рост, стимулирующие механизмы, категоризация регионов.

KIRISH

Mamlakatimizda hududiy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, hududlarning ichki imkoniyatlarini to'liq safarbar etish hamda ularning daromad bazasini mustahkamlash "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan [1]. Bugungi kunda global



iqtisodiy beqarorlik, pandemiyadan so'ng tiklanish jarayonlari, logistika va ta'minot zanjirlaridagi o'zgarishlar hududlar daromad salohiyatini oshirish masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. Chunki hududlarning iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligi mamlakatning umumiy iqtisodiy xavfsizligi, barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

O'zbekistonning hududiy rivojlanish konsepsiyasida soliq siyosati alohida strategik yo'nalish sifatida qaralib, mahalliy iqtisodiyotning faolligini oshirish, tadbirkorlikni kengaytirish va investitsion oqimlarni jalb etishning muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, kam rivojlangan hududlarni qo'llab-quvvatlash va ularning daromad salohiyatini oshirishga qaratilgan differensial soliq yondashuvi zamonaviy fiskal mexanizmlarning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–287-son Farmoni [2] mamlakat fiskal siyosatida tub burilish yasadi. Farmon asosida hududlar iqtisodiy ko'rsatkichlar, infratuzilma holati, aholi bandligi va ishlab chiqarish salohiyatiga qarab toifalarga ajratildi. Kam rivojlangan 4–5 toifali hududlarda soliq stavkalari pasaytirildi, tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha imtiyozlar berildi va investitsion faollikni oshirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi paketlar joriy etildi. Mazkur yondashuv hududlarda iqtisodiy faollikni tezlashtirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va natijada mahalliy budjet daromadlarini ko'paytirishni maqsad qilgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi sharoitda hududlarning daromad salohiyati ularning imkoniyatlaridan foydalanish darajasi, soliq siyosatining moslashuvchanligi, iqtisodiy faoliyat uchun yaratilgan sharoitlar va investitsiya oqimlari bilan bevosita bog'liq. Tabaqalashtirilgan soliq siyosatining amaliyotga tatbiq etilishi hududiy rivojlanishning yangi mexanizmlarini shakllantirib, soliq imtiyozlarining real iqtisodiy natijalarga ta'sirini chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Aynan shuning uchun hududlar daromad salohiyatini oshirishda soliq siyosatining o'rni, uning samaradorligi va natijadorligi bo'yicha ilmiy asoslangan izlanishlar hozirgi davrda nihoyatda ahamiyatlidir.

Mazkur tadqiqot hududlardagi iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan soliq mexanizmlarining amaliy ta'sirini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, natijalar hududiy rivojlanish strategiyalarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlar daromad salohiyatini oshirish va soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Xususan, iqtisodiy hududlar rivojlanishi va fiskal siyosat o'zaro bog'liq jarayon ekanligi klassik iqtisodchilar tomonidan ham qayd etilgan. Masalan, Ch. Tieboutning "mahalliy budjetlar raqobati" nazariyasi hududiy fiskal siyosatning iqtisodiy faollik va aholi farovonligiga bevosita ta'sirini asoslab bergan [3].

Hududlarda soliq imtiyozlarining investitsion muhitga ta'siri bo'yicha ko'plab xalqaro tadqiqotlar mavjud. Xususan, J. E. Stiglitz soliq rag'batlari investitsiya oqimlarini oshirishning samarali vositasi bo'lishi mumkinligini, ammo ularning iqtisodiy samaradorligi aniq maqsadli va hududiy sharoitga mos bo'lgandagina yuqori bo'lishini ta'kidlaydi [4]. O'zbekiston sharoitida ham hududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan soliq yondashuvi aynan mana shu tamoyillarga asoslanadi.

Fiskal nomarkazlashuv va mahalliy soliq siyosatining daromad salohiyatiga ta'siri bo'yicha R. Bahl va J. Martinez-Vazquezning fundamental ishlari muhim ahamiyatga ega [5]. Ularning tadqiqotlari mahalliy hokimiyatlarga soliq siyosatini qisman mustaqil yuritish huquqini berish hududlardagi daromadlar o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini namoyon etgan. Bu xulosa O'zbekistonda amalga oshirilayotgan hududlar moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish siyosati bilan ham uyg'unlik kasb etadi.

Soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham diqqatga sazovor. "Tax Incentives for Investment" nomli hisobotda soliq imtiyozlari o'z-o'zidan iqtisodiy o'sishni ta'minlamasligi, ammo ular hududlar bo'yicha to'g'ri nishonlanganda katta natija berishi qayd etilgan [6]. Bu yondashuv PF–287-son Farmonida hududlarni toifalarga ajratish orqali soliq imtiyozlarini aniq segmentlarga yo'naltirish tamoyillari bilan mos keladi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham hududlarning daromad salohiyati va soliq siyosatining o'rni yuzasidan bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Masalan, A. Vahobov va Sh. Yuldashev soliq siyosatining biznes muhitini yaxshilashdagi roli, xususan soliq yukini kamaytirish tadbirkorlik faolligini rag'batlantirishi haqida xulosalar beradi [7]. Shuningdek, O. Qo'roqov va boshqalar hududiy iqtisodiy rivojlanishda soliq imtiyozlarining differensial qo'llanilishi mahalliy budjetga tushumlar va investitsion oqimlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab bergan [8].



BMT Taraqqiyot Dasturining (UNDP) Markaziy Osiyo bo'yicha hisobotlarida esa hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda moliyaviy va soliq rag'batlarining o'zni alohida ko'rsatib o'tilgan. Hisobotda mahalliy darajadagi soliq siyosatini moslashuvchan qilish iqtisodiy o'sish nuqtayi nazaridan muhim ekani ta'kidlangan [9].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar hududlarni rivojlantirishda tabaqalashtirilgan soliq yondashuvi global amaliyotda keng qo'llanilishini va uning samaradorligi ko'plab empirik tadqiqotlar bilan tasdiqlanganini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-287-son Farmoni asosida amalga oshirayotgan siyosati aynan mana shu xalqaro tajribaga tayangan holda hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgani bilan dolzarbdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda hududlar daromad salohiyatini oshirishda soliq siyosatining o'rnini aniqlash uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Metodologiya iqtisodiy-statistik tahlil, huquqiy-normativ tahlil, taqqoslama yondashuv va empirik modellashtirish elementlarini o'z ichiga oladi. Avvalo, O'zbekistonning hududiy rivojlanish siyosati, soliq tizimi va hududlarni toifalarga ajratish mexanizmini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, PF-287-son Farmon mazmuni asos sifatida o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida respublika hududlarining soliq tushumlari, ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar oqimi va tadbirkorlik faolligi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlar bazasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari hamda Soliq qo'mitasi statistik nashrlaridan foydalanildi. Mazkur ma'lumotlar dinamik qatorlarda o'rganilib, hududlar o'rtasidagi farqlar va ularning soliq siyosatiga sezgirligi aniqlashtirildi.

Tadqiqotda taqqoslama tahlil usuli ham keng qo'llanildi. Xususan, soliq imtiyozlari berilgan toifadagi (4–5-zona) hududlar va nisbatan rivojlangan toifalardagi hududlar o'rtasida iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi solishtirildi. Bu yondashuv hududiy soliq siyosatining differensial ta'sirini empirik asosda aniqlashga imkon berdi.

Shuningdek, soliq siyosati va hududiy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion tahlil usulidan foydalanildi. Mahalliy budjet daromadlari, soliq imtiyozlari hajmi, investitsiya oqimi va ishlab chiqarish o'sishi ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar hisoblab chiqildi. Bu yondashuv soliq rag'batlarining hududiy iqtisodiy faollikka real ta'sirini aniqlashga xizmat qildi.

Sifatli tahlili doirasida xalqaro tajriba ham ko'rib chiqildi. OECD, UNDP va Jahon banki kabi tashkilotlarning soliq imtiyozlari samaradorligi haqidagi hisobotlari asosida O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan taqqoslandi. Bu esa soliq siyosati modellarining mosligini baholash va zaruriyat tug'ilganda ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos yaratdi.

Natijada tadqiqotda miqdoriy va sifatli yondashuvlarning uyg'un qo'llanishi hududlar daromad salohiyatini oshirishda soliq siyosati mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash imkonini berdi. Ushbu metodologiya nafaqat mavjud vaziyatni tahlil qilish, balki soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlar daromad salohiyatini oshirishga qaratilgan soliq siyosatining amaliy samaralarini baholashda, eng avvalo, tashkiliy-huquqiy mexanizmlar qanchalik real natija berayotganini aniqlash muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmoni asosida hududlarni toifalarga ajratish tizimi joriy etilgach, 4–5-zonalarda soliq imtiyozlari berilishi natijasida ishlab chiqarish hajmining o'sishi, mahalliy budjet daromadlarining ko'payishi, investitsion faollikning oshishi kutilgan. Ushbu o'zgarishlar miqdoriy ko'rsatkichlar orqali kuzatilsa, soliq siyosatining hududlar uchun qanday ta'sir kuchiga ega ekanligini baholash osonlashadi.

Mazkur tadqiqotda 2022–2024-yillar uchun taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlar tahlil qilindi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, soliq imtiyozlari natijasida 4–5-zonalarda tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida qolayotgan mablag'lar keskin oshgan, bu esa ishlab chiqarish faolligining kuchayishiga bevosita xizmat qilgan.

1-jadval. Hududlarni toifalash va soliq imtiyozlari orqali mahalliy budjet daromadlarini oshirishga doir ko'rsatkichlar¹

T/r	Ko'rsatkichlar	2022 y.	2023 y.	2024 y. (reja)	2025 y. (prognoz)
1	Yangi toifadagi 4-zona hududlari soni, ta	–	40	40	40
2	Yangi toifadagi 5-zona hududlari soni, ta	–	20	20	20
3	4-zona hududlari uchun soliq imtiyozlari hisobiga soliq to'lovchilar ixtiyorida qolgan mablag'lar, mlrd so'm	–	0,0	15 895,7	17 084,9
4	5-zona hududlari uchun soliq imtiyozlari hisobiga soliq to'lovchilar ixtiyorida qolgan mablag'lar, mlrd so'm	–	0,0	189 278,1	201 476,6
5	4–5-zonalardagi YAIM ishlab chiqarish hajmining yillik o'sishi, foizda	–	3,0	4,2	4,5
6	4–5-zonalarda mahalliy budjet daromadlari hajmi yillik o'sishi, foizda	–	7,0	9,4	12,0

Hududlarni toifalarga ajratish va ularga tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmi joriy etilgach, 2023–2024-yillar davomida ushbu choralar iqtisodiy ko'rsatkichlarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelishiga xizmat qildi. Avvalo, 4–5-zona hududlarining shakllantirilishi hududlar kesimida iqtisodiy faollikning qayta taqsimlanishiga, soliq yuki yengillashtirilgan hududlarda yangi iqtisodiy imkoniyatlar yuzaga chiqishiga zamin yaratdi. 2023-yil yakunlari bo'yicha mazkur zonalar sonining barqarorlashgani va 2024-yilda o'zgarmagan holda qolganini ko'rish mumkin. Bu esa toifalash tizimi qisqa muddatda o'z o'rnini topganini va hududlar bilan ishlashda aniq mezonlar shakllanganini bildiradi.

Soliq imtiyozlari mexanizmining eng muhim iqtisodiy natijasi tadbirkorlar ixtiyorida qolayotgan mablag'lar hajmining keskin oshganidir. 2023-yilda 4–5-zonalarda imtiyoz miqdori deyarli nol darajada bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib vaziyat tubdan o'zgargan: 4-zonada qoldirilgan mablag'lar 15,9 trillion so'mni, 5-zonada esa qariyb 189 trillion so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlarning 2024-yil prognoz qiymatlari yanada oshishi kutilayotgani soliq siyosatining hududlar kesimida faol investitsion rag'batlantirish vositasiga aylanganini ko'rsatadi. Ma'lumotlar shuni anglatadiki, soliq yuki kamaytirilgan hududlarda tadbirkorlik subyektlari aylanmadan ajralib qoladigan mablag'larni investitsiyaga yo'naltira boshlagan, bu esa iqtisodiy o'sish jarayonini tezlashtirgan.

YAIM o'sish sur'atlari ham ushbu jarayonning bevosita natijasi sifatida qayd etildi. 2023-yilda 4–5-zonalarda ishlab chiqarish hajmi o'sishi 3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil uchun belgilangan reja bu ko'rsatkichning 4,2 foizga oshishini ko'rsatmoqda. Prognozga ko'ra o'sish sur'atlari 4,5 foizga yetishi kutilmoqda. Bu dinamika soliq imtiyozlari bilan ta'minlangan iqtisodiy faollikning tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Mazkur o'sish, avvalo, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi, mavjud korxonalarning faoliyatini kengaytirishi va tashqi hamda ichki investitsiya oqimining ortishi bilan bog'liq omillar natijasidir.

Mahalliy budjet daromadlari o'sishi esa soliq siyosatining eng muhim pirovard natijasi hisoblanadi. 2023-yilda ushbu hududlarda mahalliy budjet daromadlarining 7 foizga o'sishi qayd etilgan bo'lsa, 2024-yil uchun bu ko'rsatkichning 9,4 foizga yetishi rejalashtirilgan. Prognoz ma'lumotlariga ko'ra esa 2025-yilda o'sish sur'ati 12 foizga yetadi. Bu holat soliq imtiyozlari berilgan hududlarda fiskal barqarorlikning zaiflashmasdan, aksincha kuchayganini bildiradi. Ya'ni soliq yengilliklari qisqa muddatda budjet tushumlarini kamaytiruvchi emas, balki ishlab chiqarish faolligini oshirish orqali umumiy tushumlarni ko'paytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur natijalarni ommilliy tahlil nuqtayi nazaridan baholaganda, o'sishni belgilovchi asosiy omillar quyidagicha shakllanadi:

1. Soliq yukining pasayishi — tadbirkorlar ixtiyorida ko'proq mablag' qolishiga va investitsiya imkoniyatlarining kengayishiga olib kelmoqda.
2. Soliq imtiyozlarining nishonli qo'llanishi — aynan iqtisodiy faol hududlar emas, balki kam rivojlangan hududlarni tanlash hududlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish jarayonini tezlashtirmoqda.
3. Investitsiya faolligining oshishi — qoldirilgan mablag'larning ko'pchilik qismi modernizatsiya, ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratishga yo'naltirilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF- 287-son Farmoni va Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



4. Iqtisodiy o'sishning tezlashuvi — ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi mahalliy iqtisodiyotda multiplikativ ta'sir ko'rsatib, xizmatlar sektori, transport, savdo va boshqa yo'nalishlar rivojlanishini rag'batlantirmoqda.

5. Budget tushumlarining oshishi — iqtisodiy faollikning kuchayishi soliq bazasini kengaytirib, imtiyozlarga qaramasdan, umumiy tushumlarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagi omillarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF- 287-son Farmoni orqali joriy etilgan soliq siyosati mexanizmlari hududlarning iqtisodiy salohiyatini faollashtiruvchi kuchli omilga aylangan. Soliq imtiyozlari qisqa muddatli fiskal yo'qotishlar emas, balki o'rta va uzoq muddatda iqtisodiy o'sish orqali budget daromadlarining kengayishiga xizmat qiluvchi strategik vosita ekanini amaliy natijalar yaqqol isbotlamoqda.

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalari ko'rsatadiki, hududlarni toifalarga ajratish va ularga soliq imtiyozlari berish mexanizmi iqtisodiy jarayonlarni faollashtiruvchi muhim strategik vosita sifatida shakllandi. Imtiyozlar orqali tadbirkorlar ixtiyorida qolgan mablag'larning keskin oshishi investitsiya faolligini kuchaytirib, ishlab chiqarish hajmlarining o'sishiga, multiplikativ ta'sir orqali esa mahalliy budget tushumlarining ko'payishiga olib kelmoqda. Bu esa soliq siyosati iqtisodiy rivojlanishning faqat fiskal emas, balki hududiy tengsizliklarni kamaytirishga xizmat qiluvchi kompleks instrumentga aylanganini anglatadi. Olingan natijalar, shuningdek, PF-287-son Farmonning hududlar iqtisodiyotini jonlantirishdagi amaliy samarasini tasdiqlab, soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish uchun mustahkam asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda hududlar daromad salohiyatini oshirishda soliq siyosatining o'rni chuqur tahlil qilindi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmoni asosida joriy etilgan hududlarni toifalash tizimi iqtisodiy faollikni jonlantirishga xizmat qilayotganini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar soliq imtiyozlari tadbirkorlar ixtiyorida qo'shimcha mablag' qoldirib, ishlab chiqarish hajmlarining kengayishiga, investitsiya oqimlarining ortishiga va natijada mahalliy budget tushumlarining ko'payishiga sabab bo'layotganini tasdiqlaydi. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni yumshatish esa nafaqat fiskal yondashuvning, balki strategik boshqaruvning ham muhim natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotdan kelib chiqadigan quyidagi xulosalar hududiy iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

1. Hududlarni toifalarga ajratish tizimi o'z samarasini bera boshlagan. 4–5-zona hududlarida iqtisodiy faollikning oshishi hududlarni toifalash tizimi amaliyotga moslashganini va hududlar bilan ishlashda aniq mezonlar shakllanganini ko'rsatdi.

2. Soliq imtiyozlari iqtisodiy o'sishni tezlashtiruvchi muhim omilga aylangan. Tadbirkorlar ixtiyorida qolgan mablag'lar 2024-yilda keskin oshgan bo'lib, bu mablag'larning modernizatsiya va kengaytirish loyihalariga yo'naltirilishi YAIM o'sish sur'atlarining oshishiga sabab bo'ldi.

3. Investitsion faollikning kuchayishi soliq siyosatining bevosita natijasi sifatida shakllangan. Imtiyozlarga ega hududlarda investitsiya oqimlari yuqori bo'lib, soliq yengilliklari iqtisodiy muhitning jozibadorligini kuchaytirgan.

4. Mahalliy budget tushumlarining o'sishi fiskal barqarorlikning mustahkamlanayotganini anglatadi. Soliq imtiyozlarga qaramay, iqtisodiy faollikning oshishi budgetga kelib tushadigan umumiy tushumlarning ortishiga olib kelmoqda.

5. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish jarayoni tezlashgan. 5-zona hududlarida berilgan yuqori imtiyozlar iqtisodiy tiklanishning tezroq borishiga imkon yaratdi va bu hududlar iqtisodiy rivojlanishda ilgari sezilarli orqada bo'lgan segment sifatida o'sish sur'atlarini kuchaytirdi.

6. Tabagalashtirilgan soliq siyosati barqaror iqtisodiy boshqaruvning ajralmas qismiga aylangan. Soliq imtiyozlari qisqa muddatli fiskal yo'qotish emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiruvchi strategik vosita sifatida o'zini oqlamoqda.

7. Tahlil natijalari soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Xususan, soliq imtiyozlarining samaradorligini monitoring qilish, ularning maqsadli qo'llanilishini ta'minlash va hududlar o'rtasidagi muvozanatni yanada mustahkamlash vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda soliq siyosati kuchli rag'batlantiruvchi omil sifatida shakllanmoqda. PF-287-son Farmon doirasida joriy etilgan mexanizmlar iqtisodiy faollikni oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va mahalliy budget daromadlari bazasini mustahkamlash orqali hududiy rivojlanishning yangi bosqichiga yo'l ochdi. Tadqiqot natijalari soliq siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish, hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish va strategik boshqaruv samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladigan muhim ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.08.2025-y., 06/25/126/0704-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2025-y., 06/25/7/0051-son
3. Tiebout, C. M. "A Pure Theory of Local Expenditures." Journal of Political Economy, 1956.
4. Stiglitz, J. E. Economics of the Public Sector. New York: W.W. Norton, 2015.
5. Bahl, R., & Martinez-Vazquez, J. "Fiscal Decentralization and Economic Growth." International Studies Program, Georgia State University, 2006.
6. OECD. Tax Incentives for Investment: A Global Perspective. OECD Publishing, 2020.
7. Vahobov, A., Yuldashev, Sh. Soliq siyosati va iqtisodiy rivojlanish. T.: Iqtisodiyot, 2019.
8. Qo'roqov, O. "Hududiy rivojlanishda soliq imtiyozlarining samaradorligi." Iqtisodiyot va Ta'lim jurnali, 2021.
9. UNDP. Human Development Report for Central Asia, 2022.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

